

**INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY
INTELEKTDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI**

Asadbek Rahmonov Ikromjon ugli

Tashkent State University of Economy

Faculty:Economy (by sectors and industries)

TDIU "Iqtisodiyot" kafedrası 3-kurs talabasi

Email: asadbekrahmonov001898@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanib rivojlantirishning eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylanib borayotganligi bundan tashqari sun'iy intellekt tushunchasiga uning mohiyatiga atroflicha fikrlar bildirilgan. Shuningdek, zamonaviy dunyoda sun'iy intellektdan keng foydalanish orqali tadbirkorlikni yanada oshirishga yordam beruvchi yo'llar sanab o'tilgan hamda sohani takomillashtirish borasida takliflar berilgan.

Kalit so'zlar. Innovatsion iqtisodiyot, sun'iy intellekt, hisoblash

mashinasi, chatbotlar, ta'minot zanjirlari, barqarorlik.

Kirish.

Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning turli yo'llaridan samarali foydalanish va uni rivojlantirish yo'llarini aytishdan oldin Innovatsion iqtisodiyot o'zi nima ekanligini oydinlashtirib ketsak. Innovatsion iqtisodiyot – bu iqtisodiyotning rivojlanishi va raqobatbardoshligi asosan innovatsiyalarni yaratish, joriy qilish va ulardan foydalanishga asoslangan tizimdir. Innovatsion iqtisodiyot texnologik yangiliklar, ilmiy tadqiqotlar va intellektual resurslarning maksimal darajada qo'llanilishi orqali yuqori samaradorlikka erishishni maqsad qiladi.

Hozirgi globallashtirish jarayonlarida "Innovatsion iqtisodiyot" fanining ahamiyati benihoya kattadir. Iqtisodiyotni rivojlantirishda intellektual mulk, ixtirolar, yangi kashfiyotlar hamda ularni patentlash, litsenziyalash va sertifikatsiyalashning o'rni salmoqlikdir. Chunki, dunyoning

qaysi burchagida bo'lmasin bunyod etilgan ixtiro bu mulk hisoblanib, undan barcha xalqlar foydalanishi mumkin. Bu masala o'z navbatida patent olish va uni sotish orqali tartibga solinadi.

Innovatsion Iqtisodiyotni rivojlantirishda sun'iy intellektning roli beqiyos. Lekin bundan oldin Sun'iy intellektga qisqacha ma'lumot bersam. "Sun'iy intellekt" atamasini yaratilishi ilk bor Dartmut konferensiyasida AQShda o'tkazilgan ilmiy yig'ilishda ishlatilgan. Ushbu yig'ilish Sun'iy Intellektning muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Keyinchalik Jon Makkarti, Marvin Minskiy, Allen Nyuell va Herber Saymon kabu olimlar ushbu konferensiyaning asosiy tashkilotchilari bo'lib, Sun'iy Intellektni ilmiy soha sifatida rivojlantirishni boshladilar. Bundan oldinroq ham Sun'iy Intellekt bo'yicha turli fikrlar va o'rganishlar bo'lgan lekin ularni o'z ilmiy ishlarini "Hisoblash mashina" si deb atashgan. Sun'iy Intellekt bo'yicha o'rganishlar aynan shu konferensiyadan so'ng ko'plab odamlarning qiziqishlari sabab bo'lganidan so'ng boshlangan va ularning bir qancha rivojlanish bosqichlari mavjud va ularning asosiy boshqichlari jadvalda ko'rsatilgan.

1-jadval

№		
1	1936-yilda	Alan Tyuringning "Hisoblash mashinasi" modeli
2	1956-yilda	Sun'iy intellekt atamasi yaratilgan
3	1966-yilda	ELIZA- ilk suxbatlashuvchi dastur
4	1997-yilda	Deep Blue G.Kaparovni mag'lub etdi
5	2016-yilda	AlphaGo o'yinda insonni yengdi

Sun'iy intellektning asosiy rivojlanish bosqichlari

Materiallar va Uslublar. Sun'iy Intellektni turli sohalarda katta hissasi katta shu qatorda iqtisodiyotni rivojlantirishda ham. Sun'iy intellektidan foydalangan holda ko'plab insonlar o'z bizneslarini rivojlantirishmoqda va inson omilini salmoqli darajada korxonalarda kamaytirishmoqda. Tadqiqotlarning aksariyati Sun'iy Intellekt sezilarli iqtisodiy ko'rsatishni ta'kidlaydi. "Accenture" kompaniyasining tadqiqotlariga ko'ra Sun'iy Intellekt 2035-yilgacha iqtisodiy o'sishlarni ikki baravarga oshishini prognoz qilishgan. Sun'iy Intellekt bu o'sishni uchta muhim turda kuchaytiradi.

Birinchisi, bu innovatsion texnologiyalar tufayli mehnat unumdorligining kuchli o'sishiga olib keladi (40% gacha). Ikkinchidan, sun'iy intellekt yangi virtual ishchi kuchini yaratadi - hisobotda "aqli avtomatlashtirish" deb ta'riflangan - muammolarni hal qilish va o'z-o'zini o'rganishga qodir. Uchinchidan, iqtisodiyot turli tarmoqlarga ta'sir ko'rsatadigan va yangi daromad manbalarini yaratadigan innovatsiyalarning tarqalishidan ham foyda.

Natijalar va muhokamalar. Tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlashi. Sun'iy intellekt kelajakdagi korxona muammolarini aniqlash va natijalarni bashorat qilish orqali tadqiqot va ishlanma jarayonini tezlashtirishi mumkin, bu esa tezroq innovatsiyalar va texnologik yutuqlarga olib keladi. Korxonada ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun qanchadan xomashyo va bitta ishchi tahminan bitta mahsulot uchun qancha vaqt sarflashini Sun'iy intellekt orqali tahminiy prognoz qilish mumkin.

Mijozlar tajribasini oshirishi. Chatbotlar va moslashtirilgan tavsiyalar kabi sun'iy intellektga asoslangan vositalar mijozlarning qoniqish va sodiqligini oshirishi mumkin, bu esa biznes rivojlanishi uchun zarurdir. Sun'iy intellektning chatbotlari orqali mijozlar ilovalar orqali murojaat qilganda ularning savollariga tez va ularni kutirmagan holda javob berish mumkin. Bunday chatbotlar foydalanuvchilariga juda katta qulaylik keltirib chiqadi va ularning kutishlarini, muammolari tezroq hal bo'lishiga o'z hissasini qo'shadi.

Ta'minot zanjirlarini optimallashtirishi mumkin. Sun'iy intellekt talabni bashorat qilish, inventarizatsiyani boshqarish va mumkin bo'lgan uzilishlarni aniqlash orqali ta'minot zanjiri operatsiyalarini optimallashtirishi mumkin, bu esa xarajatlarni tejash va samaradorlikni oshirishga olib keladi.

Barqarorlikni targ'ib qilish, AI resurslardan foydalanishni optimallashtirish, chiqindilarni kamaytirish va barqaror amaliyotlarni ilgari surish orqali korxonalarga atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga yordam beradi. Ayniqsa hozirgi kunda atrof-muhitga zarar bermasdan o'z faoliyatini olib borilayotgan korxonalar uchun talab katta hisoblanadi. Bunday korxonalar uchun mamlakatimizdagi turli imtiyozlar ham mavjud.

Ish kuchi muammolarini hal qiladi. Sun'iy intellekt ishchilarni o'qitish va qo'llab-quvvatlash, ishchi kuchining yangi texnologiyalar va jarayonlarni boshqarish uchun jihozlanganligini ta'minlash orqali malakadagi bo'shliqlarni bartaraf etishga yordam beradi. Sun'iy intellekt ishchilarni o'qitish jarayonida ularda paydo bo'lgan turli savollarga javob berishi mumkin. Bundan tashqari Sun'iy intellekt ularning ishlash jarayonini tahlil qilib ularda mavjud bo'lgan kamchiliklarni va ularning nozik tomonlarini tahlil qilgan hoda ular uchun individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqishi mumkin.

Takliflar. Sun'iy intellekt orqali hozirgi kundagi katta muammolardan biri bo'lgan korxonolarga munosib ishchilarni avtomatlashtirish mumkin. Sun'iy intellekt yordamida nomzodlarni filtrlash va ularga mos bo'lgan lavozimlarni aniqlash tez va aniq bo'ladi. Rezyume va ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilib, ish beruvchilarga eng mos bo'lgan nomzodlarni tavsiya qilishi mumkin. Ma'lumki katta korxonalar o'zlarida bo'sh ish o'rinlari mavjud bo'lsa ular e'lonlar berishadi va ularga juda katta ko'lamda so'rovnoma kelib tushadi. Bu rezyumelarni o'qib mos ishchilarni tanlash uchun juda katta vaqt ketadi. Sun'iy intellekt yordamida bu muammo tez hal bo'ladi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan mulohazalar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u iqtisodiyotning barcha sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sun'iy intellekt tadbirkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, mehnat unumdorligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda yangi imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, sun'iy intellekt orqali ishchi kuchining malakasini oshirish va korxona samaradorligini ta'minlashda sezilarli yutuqlarga erishish mumkin.

Maqolada innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish yo'llari va sun'iy intellektning ushbu jarayondagi o'rni keng ko'lamda yoritilgan. Kelgusida ushbu texnologiyalarning yanada rivojlanishi iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini kashf etish va zamonaviy iqtisodiyotning dolzarb muammolarini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, sun'iy intellektni joriy etish va undan samarali foydalanishni rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur.

Sun'iy intellekt texnologiyalari globallashtirish jarayonida innovatsion iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ushbu texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi va ulardan oqilona foydalanish mamlakatlarning raqobatbardoshligi va iqtisodiy rivojlanishining asosiy garovidir. Shu munosabat bilan, sun'iy intellektni iqtisodiyotning turli sohalariga chuqurroq tatbiq etish va ularni qo'llashda tizimli yondashuvni shakllantirish, zamonaviy texnologik yutuqlarni kengroq tatbiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar va saytlar

1. Y.E. Aliyev Innovatsion iqtisodiyot (2019) kitobida ta'riflar .
2. en.wikipedia.org/wiki/History_of_artificial_intelligence
3. www.europarl.europa.eu/RegData